**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930

**«Tasdiqlayman»**
**Buxoro davlat universiteti rektori**
**__________ O.X. Xamidov**
**«30» avgust 2022-yil**

**«HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI»**
**fanidan**
**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000– *San'at va gumanitar fanlar*
Ta'lim sohasi: 230000 – *Tillar*
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – *Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)*



Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| HO'AT 71115 | 2022-2023 | 2-3-4-5 | 16 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O'zbek | | 4 | |
| | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| **1.** | **Hozirgi o'zbek adabiy tili** | Jami: 240<br>80 soat ma'ruza,<br>80 soat amaliy,<br>80 soat seminar | 240 | 480 |

**2.**

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o'rganish zaruriyati.** O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda dastur hozirgi o'zbek tilidagi lisoniy va nutqiy sathlarni izchil farqlab, lisoniy sistema sathlari va birliklar, bu birliklarning o'zaro munosabatlarini til imkoniyatlari sifatida tavsiflaydi, bu imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini lisoniy va nolisoniy omillar yaxiitligida talqin qilish masalalari ta'limini sistemalashtiradi. Oliy ta'lim DTS asosida o'zbek tilining lisoniy sathlari bo'yicha beriladigan ma'lumotlarni tilshunoslikning tegishli bo'limlariga mos ravishda tartiblashtiradi. Talabalarni hozirgi o'zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish, lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish; birliklar orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish, lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda samarali ishga solishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

**Fanning maqsadi** – "Hozirgi o'zbek tili" kursi ta'limining maqsadi DTS asosida bo'lajak filologlarga hozirgi o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari hamda nutqiy qo'llanishi masalalari bo'yicha sistemali ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.

**Fanning vazifalari** – fanni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797 sonli farmonida ta'kidlanganidek, "o'zbek tili, uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, ta'lim oluvchilarda hozirgi o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari hamda nutqiy qo'llanishi masalalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uning asosiy vazifalarini tashkil etadi.



## II. Asosiy nazariy qism (*ma'ruza mashg'ulotlari*) (fonetika)

### *2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:*

**1-mavzu: Kirish. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari.**

Fanning maqsad va vazifalari. Hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek tili tushunchasi. Uning lisoniy imkoniyat ekanligi va voqelanish shakllari: adabiy va noadabiy, og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'rinishlari.

**2-mavzu:** Til, lison va nutq munosabati. Lisoniy paradigma.

Lisonning UMIS, nutqning AHVO tabiatiga egaligi. Lisoniy paradigm .Lisoniy paradigmaning nutqiy voqelanishi. Nutqiy birliklar. Me'yor –lison va nutqni bog'lovchi vosita.

**3-mavzu:** Lisoniy munosabat va uning turlari.

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabat turlari: paradigmatik, sintagmatik, ierarxik munosabat. Paradigmatik munosabat va uning xususiyatlari. Sintagmatik munosabat va uning xususiyatlari. Ierarxik munosabat va uning xususiyatlari. O'zbek tili tizimida ziddiyat turlari: noto'liq (privativ), teng qiymatli (ekvipolent), darajali (gradual) ziddiyat. Noto'liq (privativ) ziddiyat va uning xususiyatlari. Teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat va uning xususiyatlari. Darajali (gradual) ziddiyat va uning xususiyatlari.

**4-5mavzu:** Hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik sathi fonologiyasi.

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati.

**6-mavzu:** Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik sathi va leksikologiyasi.

Leksikologiya haqida tushuncha. Leksema va so'z munosabati. Bir sememali va ko'p sememali leksemalar. Yasama so'zning leksemalashuvi.

**7-mavzu:** Semema va uning tarkibiy qismlari.

Semema va nomema. Semema va tushuncha. Sema turlari.

**8-mavzu:** O'zbek tilida leksik-semantik munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat turlari. Sinonim leksemalar. Antonim leksemalar. Omonim, gipo-geperonim leksemalar.

**9-mavzu:** Leksikaning sestem tabiati. Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar.

Lisoniy tasnif va uning turlari haqida tushuncha. Leksikaning sestem tabiati. Lisoniy ziddiyat va uning turlari.

**10-mavzu:** O'zbek tili leksikasi tasnifi.

O'zbek tili leksikasi tasnifi turlari. Leksemalarning qo'llanishiga ko'ra tasnifi.



Сканировано с CamScanner

Ifodaviylik jihatdan o'zbek tili leksikasi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) (leksikologiya)**
**2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Leksik sath, uning xususiyatlari, birliklari**
Leksikologiya haqida tushuncha. Leksikaning xususiyatlari. Leksik sathning birliklari.

**2-mavzu: Sema, semema, leksema va ular bilan bog'liq tushunchalar**
Sema va uning turlari.Semema haqida tushuncha. Leksema haqida tushuncha.

**3-mavzu: Leksemada ma'no va hosila ma'no**
Hosila ma'no haqida tushuncha. Metafora va sinekdoxa. Metonimiya va vazifadoshlik.

**4-mavzu: O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar va ular bilan bog'liq tushunchalar**
Leksik-semantik maydon. Lingvistikada maydon nazariyasi. Maydon tushunchasining talqini.

**5-mavzu: O'zbek tilida paradigmatik munosabatlar. Sinonimiya va antonimiya**
Leksemaning ongdagi paradigmatik va sintagmatik munosabati. Leksik sinonimiya, leksik antonimiya. Kontekstual antonimiya, antonomik juftlik

**6-mavzu: Omonimiya, giponimiya, graduonimiya va partonimiya**
Omonimiya va uning turlari. Giponimiya haqida tushuncha. Graduonimiya va uning leksik tizimdagi o'rni. Partonimiya tushunchasi.

**7-mavzu: O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti**
Leksikaning tarixiy taraqqiyoti. Eskirgan so'zlar. Tarixiy so'zlar. O'z qatlam. O'zlashgan qatlam.

**8-mavzu: O'zbek tilida onomastik leksika**
Onomastika haqida ma'lumot. Onomastik birliklarning til tizimidagi o'rni. Onomastikaning o'rganish obyekti. Onomastikaning o'rganilish tarixi. Onomastik birliklarni o'rganish ahamiyati. Udumlar va ismlar tarixi.

**9-mavzu: O'zbek tili frazeologiyasi**
Frazeologiya. Frazeologizmning semantik strukturasi. Frazeologizmlarda semantik munosabat.



**10-mavzu: O'zbek tili morfemikasi**
Morfemika. Morfemalarning funksional-semantik tasnifi. Morfemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) (morfologiya)**
**2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Kirish. O'zbek tilshunosligida an'anaviy (formal) va yangi (formal-funksional) yo'nalishlar.**
O'zbek tilshunosligida an'anaviy va yangi yo'nalishlarning o'zaro munosabati. O'zbek tilshunosligida an'anaviy va yangi yo'nalishlarning o'zaro munosabati. Yo'nalishlar davomiyligi. Yangicha "zotiy yondashuv" tushun-chasi haqida. Formal-funksional tilshunoslikning tahlil usullari haqida qis-qacha ma'lumot.

**2-mavzu: Grammatik shakl va grammatik ma'no.**
Umumiy grammatik ma'no (UGM). Xususiy grammatik ma'no (XGM). Oraliq grammatik ma'no (OGM). UGM, XGM, OGM tushunchalarining sharhi, ularning mo-hiyati. Umumiy ma'noni ochish yo`llari.

**3-mavzu: Grammatik ma'no ifodalash usullari.**
Agglyutinativ tillarda grammatik ma'no ifodalovchi vositalar. Ular qo`llanishining darajasi.

**4-mavzu: So`z turkumlari tasnifi.**
So`zlarning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi. Leksemalarni ma'noviy, morfologik, sintaktik tabiatiga ko`ra guruhlash. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida so`z turkumlari va ularning tasnifi.

**5-mavzu: Mustaqil so`zlar va ularning shakllari. Fe'l.**
Fe'l. Uning UGMsi. Fe'llarning o`timli va o`timsiz turlari. Fe'llarning tasniflovchi kategoriyalari.

**6-mavzu: Ot. Sifat. Son.**
Ot turkumi va uning UGMsi. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat shakllari. Sifat va uning UGMsi. Asliy va nisbiy sifatlar. Asliy sifatlarning daraja, kuchaytirma va ozaytirma shakllari. Sifatning ma'noviy guruhlari va yasalish qoliplari. Son, uning UGMsi, lug'aviy shakllari. Numerativ (o`lchov) so`zlar. Otlarni numerativ so`z sifatida voqelantiruvchi qoliplar (sanoq son + hajm, makon, zamon, miqdor v.q. otlar + sanalish) (bir qop bug'doy).

**7-mavzu: Ravish, taqlid so'zlar, olmosh.**
Ravish va uning ma'noviy va grammatik (o`zgarmaslik) belgisi. Ravishlarning ma'noviy turlari va ularning so`z yasash qo-liplari. Taqlidlarning mustaqil so`zlar tizimidagi o`ziga xos ma'no, tarkib, qurilish va vazifa xususiyatlari. Olmosh – bo'sh ishora ma'noli so'z.

**8-mavzu: So`zlarning sintaktik (aloqa-munosabat) shakllari.**
So`zlarning sintaktik (aloqa-munosabat) shakllari. Sintaktik shakllarning

Сканировано с CamScanner

tarkibi va ichki bo`linishi:
a) so`zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi kategoriyalar (kelishik, egalik);
b) so`zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi kategoriya (kesimlik kategoriyasi).
3. Egalik kategoriyasi va uning UGMsi. Egalik kategoriyasi shakllarining murakkabligi. Ushbu shakl-ning nokategorial ma'nolari. Kelishik kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi va uning UGMsi. Kesimlik kategoriyasi va uning murakkab kategoriyalar tizi-midagi o`rni. Kesimlik kategoriyasi UGMsi – gap markazi-kesimni shakl-lantirish ekanligi. Predikatsiya va kesimlik.

**9-mavzu: Yordamchi so`zlar.**

Yordamchi so`zlar va ularning leksik hamda grammatik tizimdagi o`rni. Yordamchi so`zlarning "oraliq uchinchi" tabiatiga ega ekanligi. Shakliy xususiyatlariga ko`ra guruhlanishi. Ko`makchi. Bog'lovchi. Yuklama. Ularning ma'no va vazifasi.

**10-mavzu: So'z-gap.**

So`z-gaplar. Ularning ma'no turlari va vazifasi. So`z-gaplar va modal, undov so`zlar orasidagi munosabat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) (sintaksis)

### 2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu: Sintaksisning tadqiq manbayi va bo'limlari. Nutq sintaksisi va lisoniy sintaksis**

Sintaksisning tadqiq manbayi. Asosiy sintaktik birliklar. Formal va sistemaviy (struktur) sintaksis.So'z birikmasi(SB) sintaksisi va gap sintaksisi.Lisoniy sintaktik qolip (LSQ). LSQ sintaksisning o'rganish obyekti sifatida.

**2-mavzu: Voqelangan muayyan SBlari va gaplar nutqiy sintaktik birliklar sifatida**

Lisoniy sintaktik birliklar. LSQning turlari, tuzilishi va tarkibi. Sintaktik aloqa. Sintaktik aloqani yuzaga chiqaruvchi vositalar. Lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelik. Ma'noviy, shakliy (morfologik) va joylashuvga xos (sintaktik) birikuvchanlik. Birikuvchanlik ko'rinishlari orasidagi aloqadorlik.

**3-mavzu: So'z birikmasi nominativ birlik sifatida**

SBning nominativ tabiati. SB va so'z. SB va ibora.SBning tarkibi. Hokim va tobe bo'laklar. SB turlari va doimiy ikki a'zoliligi. SBlari zanjiri va kengaygan birikmalar.

**4-mavzu: SBlarida so'zlarning bog'lanishi va ikki yoqlama munosabati**

SBlarida so'zlarning birikish omillari. SBlarida ikki yoqlama bog'lanish. Birikish usullari va SBLSQlari.

**5-mavzu: Gap kommunikativ birlik sifatida**

Nutqiy gapning belgilari.Gapning shakllanishida leksik va morfologik omillar.Gapning lisoniy qurilishi va minimal qolipi.

**6-mavzu: Gap bo'laklari va gapning kengayishi**

Kesim–gap markazi. Gap bo'laklari va turlari.So'z kengaytiruvchi (SK) va



gap kengaytiruvchi(GK)lariga munosabati. Gap LSQining kengayishi. Sodda gapning maksimal qolipi haqida ma'lumot.

**7-mavzu: Qo'shma gapning lisoniy sintaktik qurilishi va turlari**

Qo'shma gap(QG)ni belgilovchi lisoniy va nutqiy mezonlar. QGning umumiy lisoniy sintaktik qurilish qolipi – [WPm U WPm]=QGLSQi to'g'risida. QGning serqirraligi va tasnifi masalasi.QG va uning turlari.

**8-mavzu: Murakkab qo'shma gaplar va ularning nutqiy ko'rinishlari**

QG tarkibiy qismlarining miqdori va nutqiy voqelanishi.Murakkab QGlarning lisoniy sintaktik qurilishi.Murakkab QGlarning asosiy ko'rinishlari.

**9-mavzu: Uyushgan gaplar. O'zga gap. Uning turlari.**

Uyushiq bo'lak, uyushiq bo'lakli SG va uyushgan gaplarni qiyoslash. Uyushgan gaplarning tarkibi. Uyushgan gaplarda kesimlik shakllari va ularning o'ziga xosligi. Uyushgan gaplarda eganing o'rni.Uyushgan gaplarning LSQi. O'zga gap gapning bir turi sifatida. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.O'zga gap qurilishi va cxemalari. O'zga gaplarning gap sintaksisi tizimidagi o'rni masalasi. O'zga gap va QG orasidagi munosabat.

**10-mavzu: Murakkab sintaktik butunliklar. Punktuatsiya**

Murakkab sintaktik butunlik (MSB). Tuzilishi va tarkibiy qismlari. MSB tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar. Olmosh va so'z-gaplarning MSBdagi o'rni. Matn tushunchasi: tarkibi, turlari. Abzas va uning ko'rinishlari haqida. MSBning matn va abzasga aloqadorligi. Tinish belgilari.Ularning yozma nutq bilan munosabati. Tinish belgilarining qo'llanilishi va turlari. Punktuatsiya va sintaksisning o'zaro bog'liqligi.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fonetika)

### 3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Matnni lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish bo'yicha mashqlar tahlili.
2-mavzu: Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat bo'yicha mashqlar tahlili.
3-mavzu: Fonemalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari bo'yicha mashqlar tahlili.
4-mavzu: So'z urg'usi va bo'g'in turlari bo'yicha mashqlar tahlili
5-mavzu: Fonetik va fonematik tahlil.
6-mavzu: Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha mashqlar tahlili.
7-mavzu: Kompleks fonetik-orfoepik-orfografik tahlil
8-mavzu: Leksema va so'z munosabati bo'yicha mashqlar tahlili.
9-mavzu: Leksik ziddiyatlar bo'yicha mashqlar tahlili.
10-mavzu: Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari bo'yicha mashqlar tahlili.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (leksikologiya)

### 3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:



Сканировано с CamScanner

1-mavzu: Leksema va so'z munosabati bo'yicha mashqlar tahlili.

2-mavzu: Leksik ziddiyatlar bo'yicha mashqlar tahlili.

3-mavzu: Hosila ma'no bo'yicha mashqlar tahlili.

4-mavzu: Paradigmatik va sintagmatik munosabati bo'yicha mashqlar tahlili.

5- mavzu: Omonimiya, giponimiya, graduonimiya va partonimiya bo'yicha mashqlar tahlili.

6- mavzu: Leksikaning tarixiy taraqqiyoti bo'yicha mashqlar tahlili

7- mavzu: Enantiosemiya bo'yicha mashqlar tahlili

8- mavzu: Onomastik birliklarning til tizimidagi o'rni

9-mavzu: Frazeologik birliklar yuzasidan mashqlar tahlili

10-mavzu: Morfemalarning funksional-semantik tasnifi yuzasidan mashqlar tahlili.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (morfologiya)

**3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1-mavzu: Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni matndan aniqlash. Ular bo'yicha xulosalar chiqarish. Ularning qo'llanish darajasini kuzatish. O'zga tillar bilan chog'ishtirish.

2-mavzu: Fe'l so'z turkumi bo'yicha mashq. Matndan o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlash. Fe'l nisbatlarining o'timli va o'timsiz fe'llarga munosabati.

3-mavzu: Fe'l lug'aviy ma'no guruhlarini aniqlash. Har bir LMGning markaziy leksemalarini aniqlash. Muloqotda fe'l funksional shakllarining qo'llanishini kuzatish.

4-mavzu: Ot lug'aviy shakllari bo'yicha mashq. Son paradigmasi. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat lug'aviy shakllarinining nutqiy voqelanishini kuzatish.

5- mavzu: Sifat so'z turkumi. Asliy va nisbiy sifatlarni guruhlash. Asliy sifatlarning daraja shakllari bo'yicha mashq.

6-mavzu: Son. Uning ma'no guruhlari bo'yicha mashq. Matndan o'lchov so'zlarni aniqlab, qolipini sharhlash. Sonning sintaktik vazifalari.

7- mavzu: Ravishlarning morfologik o'zgarmaslik belgisini aniq-lash. Boshqa turkumlardan farqli tomonlarini kuzatish. Ma'noviy turlari, yasalishi, sintaktik vazifalari ustida ish.

8- mavzu: Taqlidlar. Olmosh. Ularning guruhlari, yasalish usullari bo'yicha mashq.

9-mavzu: Sintaktik shakllar bo'yicha mashq. Egalik, kelishik va kesimlik shakllari paradigmasi bo'yicha amaliy ish.

10-mavzu: Yordamchi so'zlar ustida amaliy ish. So'z-gaplarning muloqotda qo'llanishini kuzatish, matndan aniqlash.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (sintaksis)

**3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1-mavzu: So'z birikmasi LSQlarining nutqiy voqelanishi



2-mavzu: So'z birikmasida kengayuvchi va kengaytiruvchi so'zlarni badiiy matn asosida o'rganish

3-mavzu: Sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning hosilalari

4-mavzu: So'z kengaytiruvchilarini SGLSQ hosilalari asosida o'rganish

5- mavzu: Gap kengaytiruvchilari va sodda gapning lisoniy qurilishi

6- mavzu: Sodda gap turlarini matn asosida o'rganish

7- mavzu: Teng tarkibli qo'shma gaplarni matn asosida o'rganish

8- mavzu: Tobe tarkibli qo'shma gaplarning nutqiy voqelanishi

9-mavzu: Mutanosib bog'lanishli qo'shma gaplarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari

10- mavzu: Murakkab qo'shma gapning nutqiy ko'rinishlari

11-mavzu: Uyushgan gaplarda [Pm] shakllari va ularning matn asosidagi tahlili

### IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fonetika)

**4.1. Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1-mavzu: O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.

2-mavzu: O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmalar.

3-mavzu: Hozirgi o'zbek adabiy tilida lison, nutq, meyor munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.

4-mavzu: Hozirgi o'zbek adabiy tilida lisoniy munosabat va uning turlari.

5-mavzu: Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.

6-mavzu: Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.

7-mavzu: O'zbek tilshunosligida aksentuatsiya va sillabika. Urg'u va bo'g'in.

8-mavzu: O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti: ta'rix va muosir.

9-mavzu: O'zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari.

10-mavzu: Leksik sath va uning birligi lingvistik muammo sifatida.

### IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (leksikologiya)

**4.1. Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1-mavzu: Leksik sath, uning xususiyatlari, birliklari

2- mavzu: Semasologiya va uning o'rganish obyekti

3- mavzu: Leksik ma'noning o'zgarish

4-mavzu: O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar va ular bilan bog'liq tushunchalar



Сканировано с CamScanner

5- mavzu: Lisoniy munosabat va uning turlari
6- mavzu: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
7- mavzu: O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti
8- mavzu: O'zbek tilida onomastik leksika
9- mavzu: O'zbek tili frazeologiyas
10- mavzu:O'zbek tili morfemikasi

## IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (morfologiya)

### 4.1. Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Grammatika va milliylik, milliy mafkura.
2- mavzu: O'zbek tili qo'shimchalar tizimi.
3- mavzu: Leksema va uning serqirralik tabiati. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.
4- mavzu: Fe'l lug'aviy ma'no guruhlari.
5- mavzu: Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Ularning hosil bo'lish usullari.
6- mavzu: So'z turkumlari tizimida ismlar.
7- mavzu: So'z yasash (derivatsiya) va uning grammatikaga munosabati.
8- mavzu: Kesimlik kategoriyasi.
9- mavzu: Yordamchi so'zlarning grammatik tabiati.
10- mavzu: So'z-gap.

## IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (sintaksis)

### 4.1. Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Birikuvchanlik va sintaktik aloqa
2- mavzu: So'z birikmasi turlari va tasnifi
3- mavzu: So'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi
4- mavzu: Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi
5- mavzu: Gap bo'laklari. So'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari
6- mavzu: Sodda gapning murakkablashuvi
7- mavzu: O'zbek tilida qo'shma gaplarning o'rganilishi
8- mavzu: Qo'shma gapning serqirraligi va tasnifi
9- mavzu: Murakkab qo'shma gaplarning lisoniy qurilishi
10- mavzu: Uyushgan gapning lisoniy sintaktik tizimdagi o'rni
11- mavzu: O'zga gap – gapning alohida ko'rinishi
12- mavzu: Tinish belgilari: turlari, vazifalari
13- mavzu: Tinish belgilarining qo'llanilishidagi muammolar

Amaliy va seminar mashg'ulotlari bir akademik guruh uchun multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzular va o'rganiladigan masalalarga muvofiq pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning bosh maqsadi talabalarning o'quv fani asosida olgan



nazariy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkurni o'stirish, o'z ustida ishlash va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq, fan va mustaqil ta'lim mavzulariga doir adabiyotlar ustida ishlash va ularni puxta o'zlashtirish, tushunchalar konspekti, referat, ma'ruza, esse, tezis va maqola tayyorlash, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun nazariy ma'lumotlarni to'plash va chuqur o'rganish, til birliklari va hodisalari mohiyatini modellashtirish, ularni chizma va jadvallarda aks ettirish, mavzular bo'yicha o'rganish obyektiga mos grafik organayzerlarni qo'llash va taqdimotlar tayyorlash talab qilinadi.

### 5.1. Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar

Talabalar fan bo'yicha o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o'zlashtirib, internet saytlaridagi manbalar va media ta'lim resurslaridan o'rinli foydalangan holda, mustaqil ta'lim topshiriqlari, shuningdek, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Fanga doir adabiyotlar bo'yicha tushunchalar konspektini yozish.
5. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha referat tayyorlash.
6. Amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun taqdimot tayyorlash.
7. O'rganilayotgan masalalar bo'yicha tezis, maqola yoki ma'ruza tayyorlash.
8. Mavzularni o'rganishda grafikli organayzerlardan foydalanish.
9. Til birliklari (hodisalari)ning qo'llanilishiga doir dalillar to'plash va tahlil qilish.
10. Mavzu doirasidagi masalalarning xorijiy va milliy tilshunoslikdagi tadqiqiga oid ilmiy asarlar (dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, risola, maqola) bilan tanishish va qiyosiy tahlilini tezislar shaklida bayon etish.
11. "O'zbek tili va adabiyoti", "Filologiya masalalari", "Til va adabiyot ta'limi" jurnallarida e'lon qilingan maqolalar ustida ishlash va tahlil qilish.
12. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha dars ishlanmalari, ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan qiziqarli o'quv topshiriqlari, nostandart test namunalarini tayyorlash.

### 5.2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksisga oid dolzarb mavzular borasidagi mulohazalarni o'rganish va munosabat bildirish (5 tadan ilmiy maqola)
2. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.
3. O'zbek tilshunosligida yangi lingvistik paradigmalar.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilida lison, nutq, meyor munosabati.
5. Fonema va tovushning dialektik munosabati.



Сканировано с CamScanner

6. O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti.
7. Leksikologiya haqida tushuncha bering.
8. Leksikologiyaning turlari haqida ma'lumot bering
9. Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi haqida ma'lumot bering.
10. Leksema va so'z, ularning xususiyatlarini tushuntiring.
11. Leksemaning ikki plani haqida ma'lumot bering.
12. Leksemaning shakl tomoni qanday atamalar bilan nomlanadi?
13. Leksemaning mazmun tomoni ushun qanday atamalar qo'llanadi?
14. Leksik ma'no va semema atamasining munosabati haqida tushuntiring.
15. Leksemaning semantik strukturasi deyilganda nima nazarda tutiladi?
16. Sememaning strukturasi nimalardan iborat?
17. Leksemaning ongda paradigmatik va sintakmatik asosda yashashini izohlang'
18. Semema va nutqiy ma'no nima?
19. Uzual va okkazional ma'no.
20. Sema va uning xususiyatlari haqida gapiring.
21. Semaning turlari haqida gapiring.
22. Sememaning tarkibi qanday tuzilgan?
23. Semema semalarining asosiy tiplari M.Mirtojiev talqinida qanday berilgan?
24. Sema turlarining Sh.Rahmatullayev asarlarida qanday yoritilgan?
25. Boshqa adabiyotlarda semalar tasnifininig yoritilishi haqida gapiring.
26. Sema haqida ma'lumot bering.
27. Semalarning ma'no xususiyatiga ko'ra qanday turlari mavjud?
28. Denotativ sema deb nimaga aytiladi?
29. Konnotativ sema deb nimaga aytiladi?
30. Vazifa semasining ajratilishiga sizning munosabatingiz qanday?
31. Integral sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
32. Differensial sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
33. Arxisema deb nimaga aytiladi?
34. Tilning struktur birliklari.
35. Tilning morfologiya sathiga doir krossvordlar tuzish.
36. Kursni qamrab oluvchi test variantlari tuzish.
37. Grafikli organayzerlar tayyorlash.
38. Umumiy grammatik ma'noni ochish yo'llari.
39. Sifat va ravishning o'xshash va farqli xususiyatlari yoritilgan videorolik-taqdimot tayyorlash.
40. Morfologiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan nostandart topshiriqlar majmuyini ishlab chiqish (10 ta)
41. Qonun va tilning ijtimoiy mavqeyi to'g'risida referat tayyorlash.
42. Leksema va uning serqirralik tabiati. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarini yorituvchi rasmli buklet tayyorlash.
43. O'zbek morfologiyasi rivojiga hissa qo'shgan olimlar hamda ular olib borgan tadqiqotlarning qisqacha tavsifi yoritilgan(xronologik tarzda) rasmli albom tayyorlash.
44. Grammatik kategoriya masalasi.



45. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni tillararo chog'ishtiruvchi buklet.
46. Turkiy va Ovrupo tillarida so'z yasash qoliplari.
47. Grammatika gap qurilishini o'rganuvchi soha sifatida. Morfologiya va sintaksis.
48. So'z birikmasi lisoniy qurilishi: birikish omillari va usullari, SBLSQlari.
49. So'z birikmasining nutqiy voqelanishi (turli sohalarga oid matnlar asosida).
50. Sodda gapning lisoniy sintaktik qurilishi.
51. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar tahlili.
52. Sodda gaplarning nutqiy qo'llanilishi va pragmatik xususiyatlari (muloqot shakllari asosida).
53. Qo'shma gapning formal va substansial tahlili.
54. Qo'shma gaplarning badiiy matnda qo'llanilishi.
55. Murakkab qo'shma gaplar va ularning nutqiy ko'rinishlari (publitsistik, badiiy, ilmiy-ommabop asarlar asosida).
56. Uyushgan gaplarning nutqiy voqelanishi (badiiy asar misolida).
57. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning tibbiy muloqotda voqelanishi.
58. Murakkab sintaktik butunliklar va matn sintaksisi.
59. Punktuatsiya va sintaksis orasidagi munosabat.

Mavzular fan bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, shuningdek, talabalar qo'shimcha tarzda topgan o'quv-ilmiy manbalarni puxta o'rganib, mustaqil ishlarini "*Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar*" da ko'rsatilgan mustaqil ta'lim shakllaridan foydalangan holda tayyorlanishi lozim.

Mustaqil ta'limga doir materiallarni o'zlashtirish va topshiriqlarni bajarish natijasi nazorat qilinadi. Mustaqil ishlar talabaning o'quv fani bo'yicha bilim va malakasini baholashda inobatga olinadi.

3. **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

hozirgi o'zbek tili fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathi va paradigmalari, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklarning lisoniy imkoniyatlari, morfologik, sintaktik birliklarning tasnifi va ilmiy asoslari, lisoniy morfologik, sintaktik imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, o'zbek tili punktuatsiyasi to'g'risida aniq tasavvur va bilimga ega bo'ladi;

hozirgi o'zbek tilida lison, nutq va ularning birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish; lisoniy va nutqiy birliklarni ajratish me'zonlarini tushuntira olish, birliklar orasidagi munosabatlarni tavsiflay olish; lisoniy imkoniyatlarni nutq sharoitiga bog'liq ravishda samarali ishga solish; so'zning serqirraligi, so'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi.

o'zbek tili fonetik, leksik, sintaktik birliklarining lisoniy, substansial imkoniyatlarini aniqlash asoslari va usullari, sintaktik imkoniyatlarning nutqiy voqelanishida lisoniy, shaxsiy va pragmatik omillarning o'rni hamda hamkorligi asoslari, punktuatsiya me'yorlarining ilmiy mezonlaridan foydalana olish, lisoniy imkoniyatlarni nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda samarali ishga solish malakasini egallaydi.

4. **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**



Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | • ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VIII. Kreditlarni to'plash tartibi va talablari:**<br>Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish, amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dalilli va to'g'ri aks ettira olish, fan doirasidagi masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalashga doir vazifalarni – yozma ish, og'zaki savol-javob yoki test shaklidagi topshiriqlarni bajarish lozim. Yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **IX. O'QUV FANI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –T., 2010.<br>2. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. II jild.Darslik. –T., 2013.<br>3.Sayfulla-yeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –Toshkent: Fan va texno-logiyalar, 2010.<br>4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2003.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>5. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008.<br>6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.<br>7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.<br>8. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.<br>9.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони ("Халк сўзи". 2017 йил, 8 февраль).<br>10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари" тўғрисида"ги карори ("Халқ сўзи", 2017 йил, 21 апрель)<br>11. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Ўкув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2009.<br>12. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик.– Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.<br>13. Замонавий ўзбек тили. Синтаксис. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. |



| | |
|---|---|
| | 14. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.<br>15. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло коидалари. (Пунктуация). Олий ўкув юртлари филология факультетлари талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўкитувчи, 1996.<br>16. Неъматов Ҳ, Бозоров О. Тил ва нутк. – Тошкент: Ўкитувчи, 1989.<br>17. Неъматов Ҳ, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўкитувчи, 1995.<br>18. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўкув юртлари ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўкув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.<br>19. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.<br>20. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик муносабатлар. (Ўкув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.<br>21. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. Олий ўкув юртларининг филология факультетлари ўкитувчи ва талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.<br>22. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.<br>**Elektron adabiyotlar**<br>23. www.ziyo.net<br>24. www.thinsan.com<br>25. www.uforum.uz<br>26. www.literature.uz |
| 7. | Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (BuxDU Ilmiy kengashining 2022-yil 30 - avgust dagi 1-sonli bayonnomasi). |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>M.Q.Abuzalova – BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori<br>S.A.Nazarova – BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi<br>D.N. Yo'ldosheva – O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.R. Axmedov – O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi<br>D.A.Abdullayeva – BuxDTI O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |



Сканировано с CamScanner